

---

# ICHIMLIK SUVI TARMOG'IDAN FOYDALANISHNING QONUNYIY TARTIBI



## **Ichimlik suvi tarmog'idan foydalanishning qonuniy tartibi**

Qonunchilikka ko'ra, vodoprovod tarmoqlariga o'zboshimchalik bilan ulanish hamda vodoprovoddan foydalanish qoidalarini boshqacha tarzda buzish, yer ishlari va boshqa ishlarni bajarayotganda vodoprovod tarmoqlarini muhofaza qilish qoidalarini buzish, bu hol ularning shikastlanishiga sabab bo'lsa yoxud sovuq yoki issiq suvni hisobga olish asboblari, ularning plombalariga qasddan shikast yetkazish, hisobga olish asboblari ko'rsatkichlarini o'zgartirish:

fuqarolarga BHMning 10 dan 15 baravarigacha (3 mlndan 4,5 mln so'mgacha);

mansabdor shaxslarga 15 dan 25 baravarigacha (4,5 mlndan 7,5 mln so'mgacha) miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Shuningdek, o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalarida qurilgan binolarni suv ta'minoti tashkilotlari tomonidan vodoprovod tarmoqlariga ulash:

mansabdor shaxslarga BHMning 70 dan 85 baravarigacha (21 mlndan 25,5 mln so'mgacha) miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

**Abdumanof Umridinov - So'x tumani adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi sho''ba mudiri**

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-01-10 12:06:28